ALIFBE BAYRAMI SSENARIYSI

“Alifbe – bilim sari ochilgan birinchi eshigim” shiori ostida

Tadbir nomi:	O‘tkazish joyi:	Belgilangan vaqt:	Banner:
“**Alifbe** — bilimga ilk qadam!”	Maktab faollar zali	40-60 daqiqa	“Xush kelibsiz, Alifbe bayramiga!”

Kirish qismi

(Fon musiqasi sokin ohangda yangraydi. Sahnaga boshlovchi chiqadi. Yuqori sinflardan olingani ma’qul.)

1-boshlovchi:



Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, ustozlar, ota-onalar va, albatta, bugungi bayramning bosh qahramonlari — bizning aziz o‘quvchilarimiz!
Bugun biz hammamiz uchun quvonchli, faxrli, unutilmas kunni siz azizlar bilan birgalikda nishonlashdan mamnunmiz!

2-boshlovchi:



Bugun bizning kichik do‘stlarimiz bir yil davomida har bir harflarni, so‘zlarni, gaplarni qanchalik o‘rganishganiga guvoh bo‘lamiz. Ular endi savodli bo‘lishdi!
Demak, bayramimiz nomi, bir umrlik esda qoluvchi — **“Alifbe bayrami”**!

(Tantanali musiqa: bolalar sahnaga kirishadi, qo‘lida “Alifbe” kitoblari va gulchambarlar.)

Bolalarning chiqishi

1-o‘quvchi:



Bugun bizda tantana,
Bayramimiz to‘yga xos!
O‘qish, yozish - o‘rgandik,
Quvonchimiz dilga mos!



2-o‘quvchi:



Alifbedan boshlanadi,
Ilm degan buyuk yo‘l!
Endi biz ham o‘qiymiz,
Savodimiz kelib ko‘r!

3-bola:



- Biz Alifbe kitobini o‘qib tugatganimizda bizga hamroh bo‘lgan Alifbe qahramonlarini sahnaga chaqiramiz!

1-boshlovchi:
— Biz Alifbe kitobini o‘qib tugatganimizda, har bir sahifada biz bilan birga bo‘lgan do‘stlarimiz bor edi. Kimlar edi ular?


Bolalar xor bo‘lib:
— Akmal, Aziza, Madina va Jasur!

2-boshlovchi:
— Marhamat, sahnaga chiqsinlar! Bugun ular o‘z do‘stlari – harflar bilan suhbatlashishadi!

(Fon musiqasi: quvnoq instrumental)

(Qarsaklar ostida Akmal, Aziza, Madina va Jasur rolidagi bolalar sahnaga chiqib kelishadi).

Ota-onalar va mehmonlar Alifbe kitobi qahramonlari bilan tanishadilar:



Akmal: Mening ismim Akmal. Men atrofimizdagi olamni o‘rganishga qiziqaman.



Aziza: Mening ismim Aziza. Men matematika va sportni yaxshi ko‘raman.



Madina: Biz Akmal bilan egizaklarmiz. Men qiziquvchan va quvnoq Madinaman.



Jasur: Men esa Jasurman. Men musiqa cholg‘u asboblarini chalishni bilaman.

Alifbe qo‘shig‘i yangraydi. *(Alifbe qahramonlari va bolalar birgalikda barcha xor bo‘lib kuylaydi, qizaloqlar raqsga tushadilar)*

🎵 **“Alifbe” qo‘shig‘i (Bek va Lola)**

(Video formati ham fonda ko‘rinib turadi)

https://www.youtube.com/watch?v=uWp8QDBECio

SCAN ME

Harflarni o‘rganamiz, o‘qishni o‘rganamiz,
Allifboni o‘rganib, bilimdon bo‘lamiz*(2 marta).*
A *– asal, asal, asal,*
B *– belkurak, belkurak,*
D *– danak, danak, danak,*
E *– esa elak! (2marta)*

Kitoblarni o‘qishni, ertaklarni o‘qishni
Va chiroyli yozishni o‘rganib olamiz.



F *– favvora, favvora,*
G *– gilos, gilos, gilos,*
H *– handalak, handalak*
I *– esa ipak! (2 marta)*

Alifboni o‘rgansak,
She’rlar ham yod olamiz,
Ota va onamizni xursand qilamiz!

J *– jo‘ja, jo‘ja, jo‘ja,*
K *– kitob, kitob, kitob,*
L *– lola, lola, lola,*
M *– ga mushukcha! (2 marta)*



Alifboni o‘rgansak,
Biz ziyoli bo‘lamiz,
A’lochi va bilimdon
Bola bo‘lamiz.

N *– ninachi, ninachi,*
O *– olmaxon, olmaxon,*
P *– paypoq, paypoq,*
Q *– ga qo‘g’irchoq! (2 marta)*



Turli-tuman harflardan,
Iborat alifbomiz.
Unli va undosh harflar –
Bizning do‘stimiz.

R *– randa, randa, randa,*
S *– soyabon, soyabon.*
T *– to‘ti, to‘ti, to‘ti,*
U *– esa ukki! (2 marta)*

Alifbo qiziq buncha,
O‘rgandik ancha-muncha.
Yana davom etamiz
So‘nggi harfgacha!
V *-varrak, varrak, varrak,*
X *-xo‘roz, xo‘roz, xo‘roz.*
Y *– yurak, yurak, yurak.*
Z *– esa zirak! (2 marta)*



Harflarni o‘rganamiz, o‘qishni o‘rganamiz,
Allifboni o‘rganib, bilimdon bo‘lamiz.
O‘ *– o‘rdak, o‘rdak, o‘rdak,*
G’ *– g’ildirak, g’ildirak.*
Sh *– shaftoli, shaftoli,*
Ch *– ga chumoli! (2 marta)*

O‘qituvchi tabrigi. O‘qituvchi ota-onalar va bolalarni bugungi kun bilan qutlaydi.



— Aziz bolajonlar, bugun sizlar mening faxrimsizlar!
Bir yil ichida sizlar “A” harfidan boshlab barcha harflarni o‘rganib, o‘qish-yozish sirlarini egalladingiz. Endi sizlar uchun yangi yo‘l — “O‘qish kitobi” dunyosi ochildi. Birgalikda ilm marralarini zabt etamiz, aziz bolajonlarim!

Bolalar xor bo‘lib:

Ustozimiz aziz, sizga ta’zim!
Mehr bilan o‘rgatdingiz har bir harfni bizga.
Rahmat sizga, ustoz, rahmat sizga, ustoz,
Siz tufayli o‘qish — bayram bizga!

Ota-onalarga minnatdorchilik

Bola:



- Onajon, otajon, rahmat sizga, meni har kuni maktabga olib kelganingiz uchun, uyda darsimizni kuzatganingiz, harflarni birga takrorladingiz uchun sizlardan minnatdorman.

(Bolalar sahnada ota-onalarga gul yoki ramziy harf sovg‘a qilishadi.)

Sahna ko‘rinishi: “Harflar dunyosi”

Rollar: A, B, D, M harflari.

🎬 Manzara:
Harflar bir-biri bilan faxr bilan gaplashadi.

🅰️ **harfi:**
Men — “Alifbe”ning birinchi harfiman, men bo‘lmasam “ona”, “aziz” so‘zi ham bo‘lmaydi!

🅱️ **harfi:**
Ha-ha, lekin “bola” deganda men kerak bo‘laman! Bolalarsiz hayot bo‘larmidi?

🇩 **harfi:**
Daryo kabi oqish uchun, “do‘st” bo‘lish uchun ham men zarurman!

Ⓜ️ **harfi:**
Men bo‘lmasam “maktab” so‘zi bo‘lmas edi. Sizlarning sevimli joyingiz — men orqali tilga olinadi!

A: “Men birinchiman, mendan keyin hech kim bo‘lolmaydi!”
B: “Ha, lekin bolasiz hayot bo‘larmidi?”
M: “To‘xtanglar, bir-birimizsiz hech narsa bo‘lmaymiz! Hammamiz kerakmiz!”
(So‘ng musiqiy yakun: “Biz birgalikda — Alifbemiz!”)

Barcha birgalikda:
Biz birgalikda — Alifbemiz!
Bolalarga yo‘l ko‘rsatamiz!

Raqs “Harflar raqsi”

Bolalar harflar kostyumida yoki harf shaklidagi plakatlar bilan raqs tushishadi.
(Musiqa: “Harflar o‘ynaydi” instrumental)
https://www.youtube.com/watch?v=8HE0GZWQtBQ

SCAN ME

Alifbe qahramonlari:

- Bolalar, kelinglar bugun birgalikda o‘rgangan harflarimiz bilan birma-bir barchani tanishtirib o‘tamiz!
Boshlovchi:
- Qani, marhamat!

(Sahnaga harflar yozilgan tojlarni taqib, sinfdagi barcha bolalar chiqadilar)



A harfi:

A – alifbo quyoshi,
Harflarga karvonboshi.
Akmal, Aziza, Ali –
“A” dan boshlanar bari.



B harfi:

Qanotlarin yig’ib olgan
Kapalakning o‘ziman.
Yelkan bo‘lib kemalarda
Shamollardan o‘zaman.



D harfi:

Dengizu daryodaman,
Davlatda, dunyodaman.
Deyman: “Shirinso‘z bo‘ling!
Doim ahil do‘st bo‘ling!”



E harfi:

Elakda-yu ertakda,
Echkida-yu eshakda,
Echkiemarda, etikda
Eng birinchi turaman,
Epchil, esli bo‘laman.



F harfi:

Egri o‘roq “F” ni topgach,
-Egizagim, deb yopishdi.
Ikkalasi filni ko‘rib,
-Minamiz, - deb chopishdi.



G harfi:

Goza’ so‘zlar boshlayman,
Gavhar bo‘lib yashnayman.
Gul, giyoh go‘yo gilam,
Gulzor chiroyli biram.



H harfi:

Hilol, hakka, handalak,
Hunar, hovli, halinchak,
Bprman inson husnida,
Hatto Humo qushida.

I harfi:



Simyog’och va terakka
O‘xshab bo‘yim uzunroq.
Igna kabi ingichka,
Ip kabi sal cho‘ziqroq.

J harfi:



Soyabonning bandi sinib,
Birpas yig’lab olibdi.
“J” harfiga o‘xsharkan deb,
Jasur hayron qolibdi.

K harfi:



Kitob, kalitda bittaman,
Kiyik so‘zida ikkita.
Kaklik, kakkuda uchtaman,
Toping-chi, men o‘zi kimman?

L harfi:



Lochinda menman yolg’iz,
Laylakda ikkitamiz.
Topdim bir so‘z: lolalar
Nechta “L” bor, bolalar?

M harfi:



Ikkita do‘st keldik biz,
Qo‘lni qo‘lga berdik biz.
Qolmasdan kuchimiz sarf,
Yozildi M degan harf.

N harfi:



“N” ni yasamoq oson,
Diqqat bilan qaragin.
Ikki ustun oralab,
Qiya ustun tiragin.

O harfi:



Yer sharidek yumaloq,
Chiroyli shaklimga boq.
Olma, olcha, olxo‘ri,
G’ildirakdek dumaloq.



P harfi

Menga uchraysan har gal
Kiysang paypoq, poyabzal.
Patir, palov yeganda,
“Paxta”, “pilla” deganda.



Q harfi

“O” va “O‘” ga o‘xshasam-da,
“Alifbo” da o‘rnim bor.
Qarang, xuddi quyonchadek
Mening ham o‘z dumim bor.



R harfi

-Randa, romda “R” tuvushi,
Uni qanday yozaman?
-Bir qo‘lni belga qo‘yib,
Bir oyog’in tiragin.
“R” ga o‘xshab qolding seb,
Bor, oynaga qaragin.



S harfi

Chala sakkiz dema meni,
Ilon bo‘la olaman.
Sal-pal chiziq tortgin qani,
Sakkiz bo‘lib qolaman.



T harfi:

Ikki chiziq – ikki harf,
Ko‘p qilmaysan kuch ham sarf.
To‘qmoq, taroq, tundaman,
Tariq, tovoq, tuzdaman.



U harfi:

Tutunda u ikkita,
Qulfda esa bitta.
Uzum, uzun, unum, tun,
Usiz bo‘lmas so‘z butun.



V harfi:

Men borman vulqonda ham,
Vafo va vijdonda ham.
Vatan, volida va vaqt
So‘zlarini boshlash baxt.



X harfi:

Xilma-xil so‘zlar yasayman,
Xalq so‘zini boshlayman,
Xazina, xabarda ham,
Xamir, xat, xantalda ham.
Borman xayol. Xatoda,
Yo‘qman hayotm hattoda.



Y harfi

Asli juda ko‘p bo‘lar
Daraxtlarda “Y” harfi.
Ham cho‘zmani eslatar,
Ayri shox-shoxlar ayri.



Z harfi

Zinada turgan o‘rtoq,
Senga border bir so‘roq:
“N” ni qanday ushlasang,
“Z” ga o‘xshaydi ozroq?



O‘ harfi

Menga gar qarasangiz,
Shaklim “O”ga o‘xshaydi.
“Ot”ga belgim qo‘ysangiz,
“Ot” emas, “o‘t” bo‘ladi.



G‘ harfi

“G‘”ni yozish qiyinmas,
Biroz e’tibor bering.
G harfining qoshiga
Vergul aksini qo‘ying.



Sh harfi

“S” do‘stlashdi “H” bilan,
Ko‘ring shodligin biram.
Shaxmat, shashka so‘zlarida
Ajralmas ular hech ham.



Ch harfi

Cho‘mich, choynak va chelak,
“Ch” dan boshlanar, qarang!
E’tibor berib ko‘ring,
Belgiga “h”dir ko‘mak.



Ng harfi
Boshqa-boshqa ikki harf
Ishlar bitta tovush uchun.
“N” va “G” ning juftligi
Ko‘rsatar dimog’ kuchin.

’

Tutuq belgisi ’
Vergulga o‘xshar shaklim,
“O” va “G” dan bor farqim.

Bayramning interfaol qismi.



1-boshlovchi:

Alifboda bordir necha harf?

O‘yla aqling qilib sarf!

Go‘yo ko‘zi, burni bor,

Har bir harfning o‘rni bor.

Har bir harf buyuk erur,

Har biri juda zarur.

Adashtirmagin zinhor,

Savod senga bo‘lsin yor!



2-boshlovchi: Navbatni bayramimizning interfaol qismiga beramiz.

“Men eng sevimli harfimni aytaman” shousi. O‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi.

--“Kimga ‘**M**’ harfi yoqadi?” bolalar javob beradi)

--“Nega? Chunki ‘**M**’ — “mehr” demak!”

--“Kimga “**V**” harfi yoqadi?”

--“Nega?” “**V**” – Vatan demak!

(Shu tarzda davom etadi)

“Harflar viktorinasi” (qiziqarli savol-javoblar: “Qaysi harf bilan ‘O‘zbekiston’ boshlanadi?” kabi) yoki “Men eng sevimli harfimni aytaman” mini-shoulari ham o‘tkazilishi mumkin.

Mini-video: “Biz o‘qishni qanday o‘rgandik” — darslardan, yozuvdan lavhalar ekranda namoysi etiladi.



Bolalarning she’r duetlari: ikki bola harf bilan so‘z topish musobaqasida “**A** – asal”, “**B** – bola” tarzida improvizatsiya qiladi.

Boshlovchilardan yakuniy so‘z:



- **Aziz mehmonlar!**

Bugun biz kichik, ammo muhim g‘alabani nishonladik — savod chiqarish!
Shunday quvonchli bayramlarni har yili o‘tkazish biz uchun faxr.
Keling, bugungi bolalarimizga olqish aytaylik — ular ertangi kunimizning nuridir!

(Sharlar, gullar, qarsaklar)

Yakuniy qo‘shiq (jamoa bo‘lib)

O‘qish — baxt, bilim — mangu,
Ilmim — eng katta najot.
Har bir harfda bor hayot,
Alifbe — bizga qanot!



Taqdirlash marosimi.



Maktab ma’muriyati tomonidan:

Har bir bolaga “**Savodli bola**” yorlig‘i topshiriladi.

O‘qituvchiga — “**Mehrli ustoz**” sertifikati topshiriladi.

Ota-onalarga — “**Ta’lim hamkori**” rahmatnomasi topshiriladi.